# XII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2023- yil yanvar-dekabr oylarida bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so‘rab 67 344 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi shahrida (5 733 kishi), Chiroqchi (6 117 kishi), G‘uzor (5 560 kishi), Qamashi (4 810 kishi), Kasbi( 4 752 kishi) , Koson (4 529 kishi), Qarshi (4 324 kishi),Yakkabog‘ 4 265 kishi),Shahrisabz (4 137 kishi), Nishon (4 009 kishi) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga murojaat qilgan fuqarolardan 33 257 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko‘rsatkich, Qarshi shahrida (2 902 kishi), G‘uzor (3 649 kishi), Koson (2 777 kishi), Qamashi (2 530 kishi), Kasbi (2 530 kishi) , Shahrisabz (2 288 kishi), , Kitob (2 162 kishi) ,Chiroqchi (2 049 kishi), tumanlarida yuqori darajada bo‘ldi. O‘tgan davr mobaynida bandlikka ko‘maklashuvchi markazlarida ro‘yxatga olingan fuqarolardan 3 275 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

**Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni**
*(kishi)*



**Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etgan va ro‘yxatga olinganlar soni**

(*2024- yil 1- yanvar holatiga, kishi*)

| | Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etganlar soni | | jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar | | ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2022- yil yanvar-dekabr | 2023- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | 2023- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | 2023- yil yanvar-dekabr |
| **Viloyat bo‘yicha:** | **51 865** | 67 344 | **4 393** | 3 275 | **1 688** | 637 |
| shaharlar: | | | | | | |
| Qarshi | 4 339 | 5 733 | 310 | 263 | 216 | 22 |
| Shahrisabz | 2 843 | 3 118 | 523 | 255 | 47 | 11 |
| tumanlar: | | | | | | |
| G‘uzor | 3 958 | 5 560 | 357 | 267 | 62 | 98 |
| Dehqonobod | 2 947 | 3 925 | 239 | 199 | 224 | 14 |
| Qamashi | 4 004 | 4 810 | 388 | 115 | 160 | 5 |
| Qarshi | 3 715 | 4 324 | 207 | 229 | 156 | 26 |
| Koson | 4 165 | 4 529 | 40 | 287 | 165 | 74 |
| Kitob | 3 430 | 3 783 | 206 | 140 | 17 | 5 |
| Mirishkor | 2 347 | 2 505 | 301 | 179 | 81 | 170 |
| Muborak | 2 106 | 2 501 | 171 | 48 | 72 | 3 |
| Nishon | 2 476 | 4 009 | 435 | 264 | 68 | 44 |
| Kasbi | 2 866 | 4 752 | 174 | 286 | 138 | 33 |
| Ko‘kdala | 2 169 | 3 276 | 73 | 138 | 35 | 24 |
| Chiroqchi | 3 563 | 6 117 | 172 | 172 | 94 | 28 |
| Shahrisabz | 3 333 | 4 137 | 464 | 314 | 72 | 30 |
| Yakkabog‘ | 3 604 | 4 265 | 333 | 119 | 81 | 50 |



**Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi**

*(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)*




*Izoh: 2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga murojaat qilib kelganlardan ro‘yxatga olinganlar ulushi Qarshi shahri va , Chiroqchi,G‘uzor, Kasbi, Qamashi tumanlarida yuqori bo‘lgan.*

## Ish bilan ta’minlangan aholi soni[1)]

| | *2022- yil yanvar-dekabr* | *2023- yil yanvar-dekabr* |
|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha:** | **28 321** | **33 257** |
| *shaharlar:* | | |
| Qarshi | 2 786 | 2 902 |
| Shahrisabz | 1 293 | 1 409 |
| *tumanlar:* | | |
| G‘uzor | 2 139 | 3 649 |
| Dehqonobod | 1 424 | 1 535 |
| Qamashi | 2 230 | 2 530 |
| Qarshi | 2 023 | 1 946 |
| Koson | 2 578 | 2 777 |
| Kitob | 1 870 | 2 162 |
| Mirishkor | 1 058 | 1 118 |
| Muborak | 1 208 | 1 420 |
| Nishon | 1 279 | 1 424 |
| Kasbi | 1 444 | 2 530 |
| Ko‘kdala | 1 500 | 1 549 |
| Chiroqchi | 1 864 | 2 049 |
| Shahrisabz | 1 714 | 2 288 |
| Yakkabog‘ | 1 911 | 1 969 |

[1)]Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida



**Ish bilan ta’minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi**

(jami ish bilan ta’minlanganga nisbatan ulushi, foizda)




**Izoh:** Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Qarshi shahrida, G‘uzor, Koson, Kasbi, Qamashi, Shahrisabz , Chiroqchi tumanlarida yuqori bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

## O'RTACHA OYLIK ISH HAQI

**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.** 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 367,7 ming so'mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Qarshi shahrida 4 655,6 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 138,2 foiz), Nishon tumanida 4 420,5 ming so'm (131,3 foiz) , Muborak tumanida 4 184,2 ming so'm (124,2 foiz) va G'uzor tumanida 3 684,3 ming so'm (109,4 foiz) ni tashkil etgan.

**Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromad**
*(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

| | Xodimlar soni, kishi | Mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so'm | O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm |
|---|---|---|---|
| **Viloyat bo'yicha jami** | **235 194** | **9 504,9** | **3 367,7** |
| shu jumladan: | | | |
| Sanoat | 27 684 | 1 857,0 | 5 589,7 |
| Qurilish | 4 157 | 207,5 | 4 160,4 |
| Savdo | 2 020 | 77,6 | 3 200,6 |
| Tashish va saqlash | 5 968 | 436,0 | 6 086,5 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 157 | 4,3 | 2 279,1 |
| Axborot va aloqa | 781 | 72,2 | 7 704,3 |
| Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik | 2 052 | 260,9 | 10 596,3 |
| Ta'lim | 111 106 | 3 495,2 | 2 621,6 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish | 50 149 | 1 454,9 | 2 417,7 |
| San'at, ko'ngil ochish va dam olish | 2 164 | 102,5 | 3 946,5 |
| Boshqa faoliyat turlari | 28 956 | 1 444 ,9 | 4 158,4 |

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

*(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)*




Viloyat bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 367,7 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 11,4 % ga o‘sgan.

O‘rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilikda 10 596,3 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 3,2 barobarga yuqori), Axborot va aloqada 7 704,3 ming so’m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,3 barobarga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 6 086,5 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 80,7 % ga yuqori), Sanoat sohasida 5 589,7 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 66,0 % ga yuqori), hamda Qurilish sohasida 4 160,4 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 23,5 % ga yuqori) ekanligi kuzatildi.





**Qashqadaryo viloyati bo‘yicha**
**o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
*(yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)*

| | *2022- yil* | *2023- yil* | *O‘sish sur’ati, % da* |
|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **2 942,0** | **3 367,7** | **114,5** |
| *shaharlar:* | | | |
| Qarshi sh. | 3 984,4 | 4 655,6 | 116,8 |
| Shahrisabz sh. | 2 445,9 | 2 869,6 | 117,3 |
| *tumanlar:* | | | |
| G‘uzor | 3 556,7 | 3 684,3 | 103,6 |
| Dehqonobod | 2 722,8 | 3 213,8 | 118,0 |
| Qamashi | 2 183,0 | 2 404,8 | 110,2 |
| Qarshi | 2 164,1 | 2 589,4 | 119,7 |
| Koson | 2 378,3 | 2 654,8 | 111,6 |
| Kitob | 2 378,3 | 2 637,9 | 110,9 |
| Mirishkor | 2 484,2 | 2 710,4 | 109,1 |
| Muborak | 3 759,2 | 4 184,2 | 111,3 |
| Nishon | 3 032,1 | 4 420,5 | 145,8 |
| Kasbi | 2 382,2 | 2 644,5 | 111,0 |
| Ko‘kdala | 2 266,4 | 2 473,5 | 109,1 |
| Chiroqchi | 2 614,6 | 2 751,4 | 105,2 |
| Shahrisabz | 2 391,9 | 2 605,9 | 108,9 |
| Yakkabog‘ | 2 363,8 | 2 523,8 | 106,8 |

**Ish haqi**. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda.

**Ta‘lim sohasida** 1856 ta muassasada 111 106 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,2 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 3 495,2 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 36,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 621,6 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 13,4 % ga o‘sgan.

## Ta‘lim iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

*(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

**Oliy ta‘limda**
**6 760,0 ming so‘m**

**O‘rta maxsus ta‘limda**
**2 874,3 ming so‘m**

**Ta‘limda jami**
**2 621,6 ming so‘m**

**Umumiy o‘rta ta‘limda**
**2 680,4 ming so‘m**

**Maktabgacha ta‘limda**
**1 466,5 ming so‘m**





**Sanoat** iqtisodiy faoliyat turida 47 ta korxonada 27 684 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,8 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 857,0 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 19,5 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 589,7ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 21,7 % ga o‘sgan.

**Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
*(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)*




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nishon tumanida 9 880,7 ming so‘mni (Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,9 martaga yuqori), Dehqonobod tumanida 7 220,5 ming so‘mni (2,1 martaga yuqori), G‘uzor tumanida 6 616,5 ming so‘mni (2,0 martaga yuqori), Muborak tumanida 6 559,8 ming so‘mni (1,9 martaga yuqori) tashkil etgan bo‘lsa, Qarshi tumanida 2 921,5 ming so‘mni (86,8 %), Qamashi tumanida 2 871,6 ming so‘mni (85,3 %), Kitob tumanida 2 781,8 ming so‘mni (82,6 %) hamda Shahrisabz shahrida 2 139,6 ming so‘mni (63,5 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.




**Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish** sohasida 106 ta muassasada 50 149 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 21,3 % ni) xodim ishlagan bo‘lib ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 454,9 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,3 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 417,7 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga o‘sgan.

**Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
*(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘mda)*




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Mirishkor tumanida 3 328,6 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 98,8 %), tashkil etgan bo‘lsa, Qarshi tumanida 1 866,9 ming so‘mni (55,4 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



**San'at, ko'ngil ochish va dam olish** iqtisodiy faoliyat turida 53 ta muassasada 2 164 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 102,5 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,1 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 946,5 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 34,2 % ga o'sgan.

**San'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyati bo'yicha**
**o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
*(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)*




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida 5 027,1 ming so'mni (viloyatdaga o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 149,3 %), Qarshi shahrida 4 867,2 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 144,5 %) kuzatildi.

**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati**

*(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)*




*ming so'm*

